

## TAMARAXONIM – O‘ZBEK RAQS SAN’ATINI ILK TARG‘IBOTCHISI

**Nabijon Kamilovich Rahimov**

Farg‘ona ixtisoslashtirilgan san’at maktabi o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolda o‘zbek raqs san’ati nomoyondasi go’zal va maftunkor raqs san’ati malikasi Tamaraxonim hayot yo’li haqida so‘z yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** tarbiya nafislik, duchoba, qiyin ufori, yon yo‘rg‘a, ansambl, maromiylik, mutanosiblik, improvizatsiya, folklor, raqqosa, yakkaxon, baletmeyster, mashq, kuy, sozanda, ritm.

### KIRISH

Raqs san’ati xalqlarning milliy turmush tarzi, muayyan madaniy xarakteri, urf – odatlari va qadriyatlarini o‘zida yaqqol aks ettiruvchi qadimiy san’at turi xisoblanadi. Olimlarning fikricha, “Xalq raqslari o‘z xalqi tilida gapiradi. Masalan, rus raqsi ruscha bag‘rikenglik, ispan raqsi ispancha xorizma va hokazo.[1;42]” Harakatlarning muayyan xalq xarakterini aks ettiruvchi nuqtalarni gruzin, ozarbayjon, ukrain, ispan, yapon, koreys raqslari kabi original jihatlarga ega bo‘lgan turlarida kuzatishimiz mumkin. Raqslarga tanlanadigan liboslar ham ularga milliylik tusini berishda katta rol o‘ynaydi. Zero, raqs tushunchasi umuminsoniy hodisa sifatida barcha xalqlarda mavjud bo‘lsa-da, ammo turli madaniyat vakillari tomonidan voqelikni idrok etishning o‘ziga xos xususiyati tufayli u har xil ko‘rinishda tahlil qilinadi.

“Xalqimizning ma’naviy saviyasi va estetik tarbiyasini yuksaltirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan raqs san’atini har tomonlama rivojlantirish, yosh avlodni milliy va jahon raqs san’atining namunalaridan keng bahramand etishni zamonning o‘zi talab etmoqda.”, - deyiladi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqs san’ati sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Mazkur qaror shunisi bilan ahamiyatligi, unda “Raqs san’ati sohasida “ustoz-shogird” an’analariga asoslangan raqs maktablarini yaratish, xalqaro standartlarga muvofiq yuqori malakali mutaxassislar va kadrlarni tayyorlash, ilmiy salohiyatdan samarali foydalangan holda ilm-fanni jadal rivojlantirish maqsadida” amalga oshiriladigan dolzarb vazifalar belgilab berildi.

Raqs san’atini muayyan bir millatning etnik-madaniy xususiyatlarini o‘zida aks ettiruvchi plastik harakatlar majmui deyish mumkin. Shu kungacha o‘zbek raqs san’atini rivojlantirishning nazariy va amaliy masalalari qisman yoritilgan bo‘lsa-da[3;168], bugungi zamон talablari darajasidagi ilmiytanqidiy tadqiqi olib borilmaganligi, sohaga oid mavjud atamalar va leksemalarning tizimlashtirilmaganligi mutaxassislar oldiga qator muhim vazifalarни ko‘ndalang qilib qo‘ymoqda.



Mamlakatimiz rivojlanishining hozirgi davrida madaniyat va san'at taraqqiyoti oliy ta'lif tizimini jahon andozalarini hisobga olgan holda takomillashtirish masalalarini ilgari surmoqda. Raqs san'at turi bo'lib, musiqaga monand ritmik tana harakatlarida namoyon bo'ladi[4].

Bugungi kunda oldimizda jahon fani va madaniyatining eng ilg'or yutuqlarini o'zida mujassamlashtirgan, inson aql-zakovati yaratgan boyliklaridan bahramand bo'lgan yangi avlodni shakllantirish vazifasi turibdi. Faqat shu asosdagina millatning taraqqiyot sari intilishini ta'minlovchi intellektual kuchni vujudga keltirish mumkin. Raqs faqat odamlar tomonidangina emas, balki boshqa hayvonlar (masalan, asalarilar, qushlar) tomonidan ham bajariladi. Jonsiz jismlar ham raqsga tushishi mumkin — metaforik: "barglar shamolda raqs tushishmoqda" yoki haqiqatan: robotlar raqsi[5].

## MUHOKAMA VA TADQIQOT NATIJALARI

Jamiyatning moddiy va ma'naviy madaniyati ortib borgani sari o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash ishiga ham tobora jiddiy va mas'uliyat bilan yondoshish talab etilmoqda. O'zbek xalqining ma'naviy boyliklari chashmasi sifatida O'zbekiston xalq artistlari, jahonga dong'i ketgan ustoz san'ator Tamaraxonimdek buyuk raqs ustasi o'zbek xalq raqs san'atiga bo'lgan qiziqish g'oyat katta. Milliy ma'naviy qadriyatlami va go'zalligini anglash o'zbek xalqining ma'naviy boyligini oshiradi va yosh avlodni nafaqat yaxshi tarbiyalab qolmasdan, o'z Vataniga, uning meroslariga muhabbat ham uyg'otadi. Raqs san'ati sohasida yildan-yilga ilmiy bilimlaming to'planib borishi, ta'lif maqsadi, mazmimini va uslublarini ilmiy asoslash, bilimli, izlanuvchan, tadqiqotchisi (Tamara Artyomovna Petrosyan) (1906-y. - 1991-y.) Tamara Artyomovna Petrosyan 1906-yilda Farg'ona shahrida ishchi arman oilasida dunyoga kelgan.

O'zbek diyorida tug'ilgan arman qizi o'zbek xalqi san'atini yaxshi bilgan, o'z iste'dodi va zahmatli mehnati bilan boyitgan va dunyoga tanitgan buyuk san'atkordir. O'zbek sahna san'atini oyoqqa qo'yishda ko'pgina qiyinchilik, to'siqlar, sinovlarga duch kelinishiga qaramay, 1920-yilda xalq ashulachisi Muhiddin Qoriyoqubov tashkil qilgan ansamblda ayollardan faqat Tamaraxonim bor edi. Ancha yosh bo'lishiga qaramay vokal, raqs, musiqa san'atidan ustozlari Muhiddin Qoriyoqubov, Usta Olim Komilov, Yusufjon Qiziq Shakarjonov, To'xtasin Jalilov, Jo'raxon Sultonov, Xojisiddiq Islomov kabi mohir san'atkordan saboq oldi. Shu yillardan boshlab Tamaraxonim musiqali drama spektakllarida drama artisti, qo'shiqchi, raqqosa bo'lib ishtirot etib, har bir obrazda o'zining bor talanti, g'ayrati orqali san'atga butun vujudi bilan berilganini ko'rsatdi. 1924-yildayoq unga «birinchi Sharq qaldirg'ochi» deb ta'rif berildi.<sup>1</sup>

Tamaraxonim ko'pqirrali iste'dod sohibasi sifatida baletmeysterlik mahoratini ham ko'rsata oldi. Farg'ona raqs uslubidan tashqari, o'ziga hos tarixi, jozibasi bilan Tamaraxonimni o'ziga rom etgan Xorazm qo'shiq va raqs san'atini xam chuqur o'rganishga kirishdi. Natijada, 1935-yilda Londonda bo'lib o'tgan birinchi halqaro raqsi va musiqa san'ati festivalida jahonga nomaturn bo'lgan o'zbekning o'ziga hos san'atini namoyish qilib, Usta Olim Komilov bilan oltin medalga sazovor bo'ldilar. 1937-yilda Moskvada bo'tib o'tgan birinchi o'zbek san'ati dekadasida milliy raqslami sahnalashtiruvchi baletmeyster ekanligini yana bir bor tasdiqladi. O'zbek raqs san'atini yanada rivojlantirishda faol ishtirot etdi. Navoiy nomidagi teatr sahnasida birinchi o'zbek balet spektaklini yaratdi. Ye.Brusilevskiyning musiqasi asosida «Gulandom» baletini yaratib, librettoning muallifi, baletmeysteri va bosh rol ijrochisi ham bo'tdi. O'zbek xoreografiyasini rivojlantirish bilan birga, qo'shiq va raqsnı birgalikda bog'lab olib bordi. U o'z repertuarlarini turli millat qo'shiq va raqslari

<sup>1</sup> san'atshunos Lyubov Avdeyeva tomonidan tartibga solingan avtobiografiyTamara xonum. : 7-iyun 2023-yil.



bilan toTdirdi. Qardosh xalqlaming ijodini chuqur o‘rganib, o‘zbek milliy sozandalar ansambl bilan ijro etib, mamlakatning turli burchaklariga qilgan safarlarida tomoshabinlami ana shu xalq ijodi bilan tanishtirish imkonini yaratdi. Rossiya, Ukraina, Belomssiya, Gruziya, Ozarbayjon, Tojikiston kabi respublikalarga chiqib tomoshabinlar va tinglovchilami o‘zbek, qozoq, tojik, uyg‘ur, arman, tatar, ozarbayjon, ras, ukrain va boshqa shular singari ko’plab xalq qo‘sinq va raqslari bilan tanishtirdi.

1941- yil boshlangan II jahon urashi yillarida front ortida ansambl bilan ajoyib qo‘sinqchilik san’ati orqali jangchilaming jangovor ruhini ko‘ratib ularga raiy madad bo’ldi. Tamaraxonim G‘arbiy Yevropa xalqlari san’atini o‘rganib o‘z repertuarini boyitdi. So‘ng, Sharq mamlakatlaridan Hindiston, Afg‘oniston, Indoneziya va Pokiston davlatlariga borib, ulami o‘zbekcha qo‘sinq va raqslar bilan tanishtirdi. Turli davlatlarga borib o‘zbek san’atini targ‘ib qilish bilan birga, o‘sha millat qo‘sinq va raqslarini to‘plab, milliy kiyimlari va taqinchoqlarini olib keldi hamda kolleksioner sifatida yig‘di[6]<sup>2</sup>.

Tamaraxonimning ijodiy lobaratoriyasi jahondagi 86 millatning qo‘sinq va raqslari bilan boyidi. Hozirgi kunda Tamaraxonimning uy muzeysi dagi mukofotlari, liboslari, o‘ziga tegishli bo‘lgan tarixiy hujjatlari, suratlar, esdalik sovg‘alari, gazeta va jumallar sahifalarida bosilib chiqqan ko‘pgina taqrizlar, artistka nomiga kelgan maktublar kabi eksponatlar uning o‘zbek san’atida naqadar katta o‘ringa ega ekanligini tasdiqlaydi. Bu muze davlatimiz tomonidan o‘zbek san’ati tarixidan so‘zlovchi, moddiy meros sifatida saqlanib kelinmoqda.

Tamaraxonim 1991-yil Toshkentda vafot etgan.

## XULOSA

Raqs san’ati - o‘ziga xos mazmun va chuqur ma’noga egaligi bilan xalq qalbiga yaqindir. Ayniqsa, xalq raqslari orqali halqning tarixi, turmush tarzi, vodiy, voha va o‘lkalariga hos ajib tarovati, mehnat jarayoni, yuksak madaniyati, insoniy fazilatlari, ayolqizlamining ibo-hayosi, yigitlar va erkaklaming kuch-qudrati, g‘ururi, bolalaming sho‘xligi, bayram va xursandchiliklari tarannum etilishi bilan birga, insonning qayg‘u-alamli kunlari, dardu-firog‘i tasvirlanadi. Inson hayotini, tabiatdagi voqealami raqs san’ati orqali halqqa yetkazish uchun uning obrazliliginini ta’minalash lozim.

“Raqs san’ati insonning ichki dunyosi, samimiyligi va boy his-tuyg‘ulari, harakatlar va imo-ishoralarning go‘zalligi, uslub va xarakterning yaxlitligini ifoda etishning mukammal shaklini yaratishga qodir. Vaqt o‘tishi bilan raqsdagagi ifodaviy tasvirlar o‘zgaradi, an’anaviy raqs shakllari o‘zgarib, ularning dastlabki mazmuni yo‘qola boradi. Bunday holda, zamonaviy xalq raqslari xoreograflari, ko‘pincha, qiyinchiliklarga duch keladilar. Shu sababli xalq raqs sohasidagi tadqiqotlar va ularning natijalaridan xoreograflarning amaliy faoliyatida foydalanish zarurati paydo bo‘ldi.[9;687]”

Shu tariqa, o‘zbek raqs terminologiyasi ham o‘z atamalarining tub ildizlarini, asosan, o‘zbek tilining boy leksik manbalaridan, qolaversa, mahalliy turmush tarzi, iqlimi, kasb-kori, o‘ziga xos ijtimoiy-madaniy muhitda shakllangan tafakkuri manbalaridan izlaydi.

Bugungi kunda raqs san’ati dunyosida faoliyat olib borayotgan raqqos va raqqosalar bevosita Tamaraxonim bosib o’tgan yo’llardan yurishni, u erishgan yutuqlarga xavas qilib ko’plab unvonlar olishga intiladilar.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Авдеева Л.А. Ўзбекистон рақс санъати. Кўлланма.1960.

<sup>2</sup> "Tamaraxonim" [O‘zME. T-harfi](#): Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil



2. Карапетьян А.Э. Терминосистема танца в английском и русском языках: лексико-семантический и лингвокультурный аспекты. Краснодар, 2008 г.
3. R.Karimova. « O‘zbek raqlari». T.: «Cho‘lpon» nashriyoti, 2003.
4. X.Xamidova, D.Sayfullayeva, S.Zokirova. «Merosiy raqs durdonalari». T.: «Cho‘lpon», 2003.
5. D.Sayfullayeva, Z.Kazakbayeva. O‘zbek raqs san'ati tarixi va raqs sahnalashtirish sirlari. T.: «Voris» M.Ch.J., 2006.
6. R. Karimova, D.Sayfullayeva. 0 ‘zbek yakka ayollar raqsi. T.: «Cho‘lpon», 2007.
7. Avdeyeva L. O‘zbek milliy raqsi tarixidan. T., 2001.
8. O.I.Shirokaya. Tamaraxonim. G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1973.
9. Насибулина Л.И. Локальные школы национального танца Узбекистана// «Молодой учёный» № 23 (313). Июнь 2020 г. С.687
10. N.Abraykulova. Raqs jamoalari bilan ishlash uslubiyoti. T.: Xalq merosi nashriyoti, 2004.

